

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

**«AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYALARI»
KAFEDRASI**

JIYANOV O.P., NORQULOV A.S.

**“ta’limda multimedia tizimlari”
fanidan**

Laboratoriya mashg’ulotlarini bajarish bo’yicha

(Uslubiy ko’rsatma)



SAMARQAND 2016

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALAR VA
KOMMUNIKATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

**TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA KASB TA'LIMI
FAKULTETI**

**«AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYALARI»
KAFEDRASI**

JIYANOV O.P., NORQULOV A.S.

**“TA'LIMDA MULTIMEDIA TIZIMLARI”
fanidan**

Laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun

(Uslubiy ko'rsatma)

TATU Samarqand filiali
o'quv-uslubiy kengashi
tomonidan o'quv jarayonida
foydalanishga tavsiya etilgan

Bilim sohasi:	100000	– Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	110000	– Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111000	– Kasb ta'limi (5330200 – informatika va axborot texnologiyalari)

SAMARQAND 2016

Ushbu uslubiy ko'rsatma «5111000– Kasb ta'limi (5330200 – informatika va axborot texnologiyalari)» yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan 4 bosqich kunduzgi bo'lim talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, “Ta'limda multimedia tizimlari” fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha barcha yo'riqnomalar hamda laborotoriya ishi variantlarini o'z ichiga olgan.

“Ta'limda multimedia tizimlari” fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha Uslubiy ko'rsatma – Samarqand 2016. TATU SF, 2016. – 70 bet.

Mualliflar:

ass. O.P.Jiyanov

ass. A.S.Norqulov

Tarqizchilar:

Zaynalov N.R. – SamISI «Axborot texnologiyalari» kafedrası mudri, dotsent.

Kubaev S. - «Kompyuter tizimlari» kafedrası dotsenti.

Uslubiy ko'rsatma TATU Samarqand filiali o'quv-uslubiy kengashining
2016 yil ____ - _____ № ____ qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.
Ilmiy-uslubiy kengash raisi: _____ dotsent Jumanov X.

MUNDARIJA

KIRISH	6
Laboratoriya ish №1. O'rgatuvchi multimediali taqdimotlar tayyorlash (o'zbek va ingliz tilida).....	8
1-Laboratoriya ishi bo'yicha topshiriqlar	18
Laboratoriya ish №2. O'rgatuvchi multimediali video darslar tayyorlash.....	19
2-Laboratoriya ishi bo'yicha topshiriqlar	27
Laboratoriya ish №3. Adobe Photoshop dasturi yordamida ko'rgazmali o'quv plakatlari tayyorlash	28
3-Laboratoriya ishi bo'yicha topshiriqlar	35
Laboratoriya ish №4. iSpring QuizMaker dasturi yordamida multimediali testlar yaratish	41
4-Laboratoriya ishi bo'yicha topshiriqlar	48
Laboratoriya ish №5. Macromedia Flash amaliy dasturi yordamida o'rgatuvchi animatsiyalar yaratish.....	49
5-Laboratoriya ishi bo'yicha topshiriqlar	61
Laboratoriya ish №6. AutoPlay Media Studio amaliy dasturi yordamida o'quv multimediali ilovalar yaratish.....	62
6-Laboratoriya ishi bo'yicha topshiriqlar	67
Adabiyotlar ro'yhati	68
Qo'shimcha ma'lumotlar uchun	70

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish uchun fuqarolarning, ayniqsa ziyolilarning ma'naviy salohiyati, iqtisodiy o'zgarishlarini to'g'ri talqin qilishlari va bu jarayonlarni boshqara olishlari hamda XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob bera olishlari uchun o'quv maskanlarida sifatli kadrlarni yetkazib berish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yunalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida: «Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirishning mantig'i mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan va O'zbekistonning jaxon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va mavqiyeni mustahkamlashga yunaltirilgan tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohasini jadal rivojlantirish siyosatini 2011 yildagi asosiy ustuvor yunalish sifatida davom yettirishni taqozo yetmoqda¹» deb ta'kidlaydi.

Talabalarga ushbu fan xususiyatlari doirasida mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, yuqorida keltirilgan materiallar, qoidalar va xulosalarni puxta o'zlashtirishlari, kelgusi faoliyatida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondashishlari taminlash fanni o'rganish oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

¹ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 48 b.

Fanning o'qitishdan maqsad:

Ushbu fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda multimedia xujjatlarni yangi shakllarini ishlab chiqish, multimediani ta'lim va boshqa soxalarda qo'llash, multimedia texnologiyalarini ishonchlilik, havfsizlik va unumlilik ko'rsatkichlarini oshirishni takomillashtirish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdan iborat.

Fanining vazifasi:

Talabalarga multimedia texnologiyalari va tizimlariniig asosiy tushunchalari, ovozli texnologiyalarni ta'minlab beruvchi kompyuter vositalari, muloqot axborotlarini kiritish va chiqarish tizimlarini o'rgatishdan iborat.

Laboratoriya ish №1

Mavzu: O'rgatuvchi multimediali taqdimotlar tayyorlash

(o'zbek va ingliz tilida).

Ishdan maqsad: O'rgatuvchi multimediali taqdimotlar, slaydlar, videodarslar va animatsiyalar tayyorlash.

Na'zariy ma'lumot:

Bu ishimizda oddiy foydalanuvchilar uchun PowerPoint dasturidan foydalanib slaydlarga animatsiya qo'yishni o'rganamiz .

1-qadam: PowerPoint dastur oynasini ochib olamiz.

PowerPoint dasturi MICROSOFT firmasining WINDOWS qobig'i ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qo'lay bo'lgan dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish va ba'zi joylarda esa ma'lumotlar bazasi sifatida ham qo'llash mumkin. Ayrim hollarda bu dasturdan multimedial vositalarini boshqarish va ularni qo'llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini ham bajarish mumkin.

Dasturdagi asosiy tushunchalar bu - slayd va prezentatsiya tushunchalaridir.

PowerPoint dasturi rang-barang vizual va tovushli effektlar bilan boyitilgan elektron prezentatsiyalar yaratishning imkonini beradi. Har bir slayd matn, rasm, jadval va diagrammaga ega bo'lishi mumkin. PowerPoint dasturining zamonaviy versiyalari prezentatsiyaga videokliplarni kiritish, giperhavola yordamida tarmoqlanuvchi slaydlar yaratish, Windows ning boshqa ilovalarida (masalan, Microsoft Word hujjati yoki Microsoft Excel cahifasi) tayyorlangan obyektlarni slaydlarga tatbiq etish imkonini beradi.


Power Point dasturi haqida tushuncha

Power Point dasturi MICROSOFT OFFICE firmasining WINDOWS kobigi yordamida yaratilgan bo'lib, dastur prezentatsiyalar bilan ishlash (tanishtirish, taqdimotlar qilish) uchun eng kulay dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur orkali xilma-xil turdagi ko'rgazmali qurollarni yaratish mumkin va

ayrim joylarda esa uni ma'lumotlar bazasi sifatida xam ko'llash mumkin. Ayrim xollarda esa bu dasturda multimedia vositalarni boshkarish va ularni ko'llab, namoyish etuvchi kurilmalarga yuborish vazifalarini xam bajarish mumkin. Bu yerda asosiy tushunchalar: slayd va prezentasiyalar xisoblanadi.


Power Point dasturini ishga tushirish. Bu dasturni ishga tushirishni WINDOWS ish stolidan boshlash zarur. Ish stolidagi kuyidagi buyruklarni bajarish orkali dastur ishga tushiriladi. «Пуск» - «Программы» - «Microsoft Power Point».

Eslatma: Yuqoridagi buyruqlarni bajarish sichqonchanning chap tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi. Power Point ishga tushgandan so'ng ish ko'rgazma yaratish mulokot darchasi va mavjud prezentasiyalar bilan boshlanadi. Power Point ishga tushirilgan ekranda ko'rsatilgan muloqot darchasini ko'rish mumkin.



1-rasm.

Power Point dasturi menyulari va ularning vazifalari



2-rasm.

Power Point dasturining umumiy ko'rinishi: Sarlavxalar katori, gorizontall menyu, uskunar paneli («standart», «formatlash» va rasmlar bilan ishlash), rejim tugmachalari (slydlar rejimi, strukturalar rejimi, saralash rejimi, namoyishlar rejimi) va ishchi maydonni o'z ichiga oladi.

PowerPoint dasturida slydlar hosil qilish.

Slyd – ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan mulkot varakalari xisoblanadi. Ularda yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi. Prezentasiya – yaratilayotgan slydlar turkumi va uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi. Masalan: Prizentatsiya 1-PowerPoint dasturi ochilganda, sarlavxalar katori paydo bo'lib, unda yaratilayotgan yoki yaratilgan prezentasiyaning ayni vaktdagi nomi xosil bo'ladi. Bu nomni keyinchalik o'z xoxishingizga ko'ra almashtirishingiz mumkin.

Elektron slydlarni hosil qiluvchi zamonaviy dasturlar multimediyaga tobora moslanmoqda. Ular orasida eng taniqlisi Microsoft firmasining PowerPoint dasturidir. Tasvirlash va animasiya effektlariga ko'ra ushbu dastur multimediyaga moslashtirilgan ko'plab dasturiy vositalardan kam emas.

PowerPoint dasturida tayyorlangan prezentasiya boshidan oxirigacha qat'iy ssenariy asosida bo'lishi shart emas, u foydalanuvchining rejasiga ko'ra erkin tarmoqlanishi mumkin.

Elektron prezentasiya – berilgan ketma-ketlikda ekranda namoyish etiluvchi slaydlar to'plamidir.

PowerPoint dasturi oynasida ishlashni sezilarli yengillashtiruvchi uskunar paneli mavjud. Uskunar paneli ko'pligi sababli, o'rnatilgan holatda ularning ba'zilarigina ochiladi. Boshqa kerakli uskunar panellari Vid menyusining Panel instrumentov buyrug'i orqali chiqarib olinadi.

PowerPoint dasturida ishlaganda Konteks menyusidan foydalanish tavsiya etiladi.


PowerPoint dasturida quyidagi oltita ish rejimi mavjud: oddiy; struktura (tuzilish)lar; slaydlar; slaydlarni saralovchi; slaydlarni namoyish etish va belgilar sahifasi.

Rejimlarning biridan boshqasiga o'tish dastur oynasining chap quyi burchagida joylashgan tugmalar orqali yoki Vid menyusi yordamida amalga oshiriladi. Prezentasiyaning alohida slaydlari bilan ishlaganda Slaydlar rejimidan foydalaniladi. Ushbu rejimda matnlarni kiritish va tahrir qilish, rasmlar, jadvallar va diagrammalarni qo'shish va modifikasiya qilish oson tarzda bajariladi.

Slaydlar barcha miniatyura nusxalarining ketma-ketligini ko'rishni Slaydlarni saralovchi rejimi ta'minlaydi. Ushbu rejimdan bir nechta slaydlar bilan ishlashda foydalanish maqsadga muvofiq, chunki unda slaydlardan nusxa olish, ko'chirish, qo'shish va o'chirishning imkoniyatlari mavjud. Nusxa olish va ko'chirish amallarini bufer yoki sichqoncha yordamida bajarish mumkin.


Biz bugungi laboratoriyamizni tayyorlash jarayonida Power Point 2010 dasturi yordamida Google Chrome brauzeri oid prezentatsiya tayyorlaymiz.

1-qadam: Dasturni ishga tushurganimizda quyidagi oyna paydo bo'ladi.



3-rasm.


O'zimizga kerakli bo'lgan dizaynni tanlash uchun menyular satrida "Dizayn" bandi tanlanadi va maxsus ko'rinish tanlanadi.



4-rasm.


Biz o'zimiz uchun Apeks dizaynini tanlaganizdan so'ng prezentatsiya sahifasi o'zgarganini ko'ramiz. Prezentatsiya sahifalarini ko'paytirish uchun esa ekran chap tarafidagi 1-sahifamizning ustiga sichqonchanning o'ng tugmasini

bosamiz. Paydo bo'lgan qo'shimcha menyudan "Dublirovat slayd" ni tanlashimiz zarur.



5-rasm.


Biz bu ketma –ketlikni istalgancha davom ettirishimiz mumkin.



6-rasm.

Tanlagan mavzumiz Google Chrome brauzeri bo'lganligi sababli 1-slaydga prezentatsiyamizning "Zagolovok slayda" qismiga mavzusini hamda «Podzagolovok slayda» qismiga kim tomonidan bajarilganligini kiritamiz.

Shu jumladan slayd interfeysini yaxshilash uchun biz kompyuter xotirasidagi istalgan rasmni ko'chirib (Ctrl+C) slaydimizga o'rnatishimiz mumkin (Ctrl+V). Biz Chrome brauzerini emblemasini tanladik.




7-rasm.

Endi esa shu ketma – ketlikda slaydlarni ma’lumotlar bilan to’ldiramiz. 2-slaydga o’tish uchun ekran chap qismidan 2 slayd tanlanadi va tanlangandan so’ng yangi bo’sh slayd ochiladi.




8-rasm.

Bu slaydni biz Chrome brauzeri haqidagi ma’lumotlar bilan to’ldiramiz. Navbatdagi slaydga kiritilgan matnli ma’lumotlarni rangi stilini o’zgartirish uchun menyular satridan *Glavnaya* menyusini tanlaymiz va matnga ishlov berish qismiga o’tgan holda ranglar palitrasidan o’zimizga kerakli bo’lgan rangni tanlaymiz.




9-rasm.

Shu ketma – ketlikni yana takrorlab slaydlarimizni ma’lumotlar bilan to’ldiramiz.




10-rasm.

Keyingi slayda Google Chrome brauzerining o’zi bilan tanishamiz. Buning uchun sahifadan PrntScr tugmasi orqali rasmga olamiz va PowerPoint dasturiga ko’chiramiz.



11-rasm.

So'ngra Google Chrome parametri ya'ni sozlashlar oynasining ko'rinishini PPT dasturimizga ko'chiramiz.



12-rasm.

Va nihoyat qisqa prezentatsiyamiz tayyor holga keltiramiz.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Microsoft Office amaliy dasturlar paketiga mansub Power Point taqdimot yaratish dasturi juda universal hamda optimal ishlangan dastur hisoblanadi. Talabalarga multimedia texnologiyalari va tizimlariniig asosiy tushunchalari, ovozli texnologiyalarni ta'minlab beruvchi kompyuter vositalari, muloqot axborotlarini kiritish va chiqarish tizimlarini o'rgatadi. Foydalanuvchi interfeysini juda qulayligi hamda slaydlar yaratish jarayonini juda tezligi hamda qo'shimcha uskunalari hamda parametrlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Talabalarda multimedia xujjatlarni yangi shakllarini ishlab chiqish, multimediani ta'lim va boshqa soxalarda qo'llash, multimedia texnologiyalarini ishonchlilik, havfsizlik va unumlilik ko'rsatkichlarini oshirishni takomillashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Sattarov, B. Kurmonboyev. Informatika va xisoblash texnikasi asoslari. Toshkent. «O'qituvchi». 1996 y.224 bet.
2. Zakirova F., Muxamedxanov U., Sharipov Sh., Isyanov R., Esanboboyev F., Dottoyev S.. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma. T.: OO'MTV, 2010.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Google_Chrome
4. <http://hyper.uz/chromeda-ovozli-izlash-yanada-takomillashdi/>
1. <http://elkutubhona.narod.uz>
2. <http://uz.ref.uz>
3. <http://pedagog.uz>
4. www.tuit.uz
5. www.ziyonet.uz

1-Laboratoriya ishi bo'yicha topshiriqlar:

1. *Microsoft Word* dasturi imkoniyatlarini yoritish
2. *Microsoft Excel* dasturi imkoniyatlarini yoritish
3. *My Recover* dasturi imkoniyatlarini yoritish
4. *Microsoft Paint* dasturi imkoniyatlarini yoritish
5. *Camtasia Studio* dasturi imkoniyatlarini yoritish
6. *Adobe Photoshop* dasturi imkoniyatlarini yoritish
7. *Macromedia Flash* dasturi imkoniyatlarini yoritish
8. *Corel Draw* dasturi imkoniyatlarini yoritish
9. *Microsoft Access* dasturi imkoniyatlarini yoritish
10. *WinRAR* dasturi imkoniyatlarini yoritish
11. *Total Commander* dasturi imkoniyatlarini yoritish
12. *3D MAX* dasturi imkoniyatlarini yoritish
13. *iSpring Suite* dasturi imkoniyatlarini yoritish
14. *Power ISO* dasturi imkoniyatlarini yoritish
15. *Fine Reader* dasturi imkoniyatlarini yoritish

Laboratoriya ish №2

Mavzu: O'rgatuvchi multimediali videodarslar tayyorlash.

Ishdan maqsad: Mul'timediyali ilovalarni yaratish uchun qo'llaniladigan amaliy dasturlar paketidan Pinnacle 12 versiyasini o'rganib chiqish. Hamda uning imkoniyatlari bilan tanishish.

Nazariy ma'lumot:

Mul'timediyali ilovalarni yaratishda qo'llaniladigan amaliy paketlardan biri Pinnacle 12 versiyasi hisoblanadi. Ushbu dastur yordamida biz video mantajda foydalanilamiz. Bugungi kunda mantaj ishlarini bajaradigan penakeldan tashqari yana bir qancha dasturlar ham mavjudir, shulardan Ulead videostudio 10 versiyasi hamda 11-versiyalaridan foydalanib asosan rasmlar ustida har xil effektli mantajlarni yaratishimiz mumkin bo'ladi. Ammo, ulardan yuqorida Pinnacle 12-versiyasi yuqori turadi. Bu dasturda nafaqat rasmlar balki rasmlar bilan birgalikda videolarni ham mantaj qilishimiz mumkin bo'ladi. Bugungi kunda video mantajlarni yanada chiroyli qilib ishlab chiqarish uchun Pinnacle 12,14,15-versiyalari ishlab chiqarilgan. Bularning bir-biridan farqi shundaki, ularning har birida turli xil effektlar va turli xil animatsiyalar mavjuddir.

Ishning borish tartibi: Biz bu laboratoriya ishini bajarish mobaynida quyidagi ishlari bajaramiz.


1-Ishimizda: Bu ishimizda kompyuterdan **Camtasia Studio** dasturini ustanovka faylni topib olamiz. Natijada uni o'rnatamiz.O'rnatish jarayoni quydagicha bo'ladi.




2-Ishimizda: Camtasia Studio dasturini kompyuterga o'rnatamiz. Bunda quyidagi oynalar paydo bo'ladi. "Next" tugmachasini tanlaymiz:




3-Ishimizda: Quyida litsenziya bo'lmagan bo'limni tanlaymiz: Quyidagi rasmda keltirilgan.




4-Ishimizda: Keyingi rasmda 30 kunlik muddatga sinab ko'rish uchun dastur taqdim etilayotganligi ko'rsatilgan. "Next" bo'limini tanlaymiz:




5-Ishimizda: Quyida dasturning qaysi diskda va uning qaysi bandida o'rnatilayotganligi ko'rsatilgan bo'ladi. "Next" ni tanlaymiz:



6-Ishimizda: Quyida Dasturning Microsoft Power Point dasturining asosiy oynalaridan biri sifatida joylashtirilishi ko'rsatilgan. "Next" ni tanlaymiz:



7-Ishimizda: Camtasia Studio dasturini o'rnatilish jarayoni:




8-Ishimizda: Tugallangan qism:




9-Ishimizda: Dasturning asosiy oynasi quydagicha bo'ladi:




10-Ishimizda: Camtasia Studio dasturini ishga tushiramiz.




11-Ishimizda: Bu ishimizda Pinnacle 12 dasturidan qanday qilib foydalanishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun biz dasturga quydagicha kiramiz:




12-Ishimizda: Pinnacle 12-versiyasining ishchi oynasi quydagicha bo'ladi.




13-Ishimizda: Bir necha rasmlarni ustida mantaj ishlarini amalga oshiramiz. Buning uchun biz rasmlarni chaqirib olamiz. Albom menyusidan “**Картинки**” bo'limni tanlaymiz.




14-Ishimizda: Rasmlarni schqoncha bilan ushlab Videoga joylashtramiz.



15-Ishimizda: Joylashtirilgan rasmlarimizni har xil animatsiyalar beramiz buning uchun esa uskunalar panelidan “показат переходны” nomli bo’limidan foydalanilamiz.




16-Ishimizda: Hamda “показат титры” orqali matnlarni kiritishimiz mumkin.



17-Ishimizda: Keyingi ishimizda biz musiqani o'rnatamiz. Buning uchun Albomniy menyusidan “Музики” bo'limi orqali muzikani tanlab qo'yishimiz mumkin.



18-Ishimizda: Hamma ishlarni yakunlagach Camtasia Studio dasturini ish faoliyatini to'xtaamiz. “ПАУЗА” tugmasini bosamiz. Dastur ishini tugallagach uni ham saqlab qo'yamiz.



Xulosa

Ushbu laboratoriya ishini bajarish jarayonida videodarsliklar tayyorlash uchun mo'ljallangan "Camtasia Studio" dasturi, uning imkoniyatlaridan foydalanib, Pinnacle 12 versiyasi dasturi bilan ishlash jarayonini o'rgatib beradigan kichkinagina videodarslik tayyorlandi. Ushbu dasturda yaratilgan videodarslik turli xildagi formatda saqlash imkoniyatining mavjudligi barcha videoplayerlardan ko'rib o'rganish imkonini beradi. Ushbu dastur yordamida biz video mantajda foydalanilamiz. Bugungi kunda mantaj ishlarini bajaradigan penakeldan tashqari yana bir qancha dasturlar ham mavjudir, shulardan Ulead videostudio 10 versiyasi hamda 11-versiyalaridan foydalanib asosan rasmlar ustida har xil effektli mantajlarni yaratishimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Xodiyev B.Yu., Golish L.V. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari (birinchi bosqich talabalariga yordam tariqasida): O'quv-uslubiy qo'llanma – T.: TDIU, 2010. – 97 b.
2. Zakirova F., Muxamedxanov U., Sharipov Sh., Isyanov R., Esanboboyev F., Dottoyev S.. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma. T.: OO'MTV, 2010.
3. Sattarov, B. Kurmonboyev. Informatika va xisoblash texnikasi asoslari. Toshkent. «O'qituvchi». 1996 y.224 bet.
4. <http://elkutubhona.narod.uz>
5. <http://uz.ref.uz>
6. <http://pedagog.uz>
7. www.tuit.uz
8. www.ziyonet.uz

2-Laboratoriya ishi bo'yicha topshiriqlar:

1. *Microsoft Word* dasturi imkoniyatlarini yoritish
2. *Microsoft Excel* dasturi imkoniyatlarini yoritish
3. *My Recover* dasturi imkoniyatlarini yoritish
4. *Microsoft Paint* dasturi imkoniyatlarini yoritish
5. *Camtasia Studio* dasturi imkoniyatlarini yoritish
6. *Adobe Photoshop* dasturi imkoniyatlarini yoritish
7. *Macromedia Flash* dasturi imkoniyatlarini yoritish
8. *Corel Draw* dasturi imkoniyatlarini yoritish
9. *Microsoft Access* dasturi imkoniyatlarini yoritish
10. *WinRAR* dasturi imkoniyatlarini yoritish
11. *Total Commander* dasturi imkoniyatlarini yoritish
12. *3D MAX* dasturi imkoniyatlarini yoritish
13. *iSpring Suite* dasturi imkoniyatlarini yoritish
14. *Power ISO* dasturi imkoniyatlarini yoritish
15. *Fine Reader* dasturi imkoniyatlarini yoritish

Laboratoriya ish №3

Mavzu: Adobe Photoshop dasturi yordamida ko'rgazmali o'quv plakatlari tayyorlash

Ishning maqsadi: Amaliy dasturlarda multimedia elementlaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish. Adobe Photoshop dasturi bo'yicha bilimlarni takomillashtirish.

Masalaning qo'yilishi: Photoshop dasturi yordamida fotografiyalarni rasmlarga stilizatsiya qilish.

Ishning bajarilishi: Oddiy fotografiyalarni osongina rasmlarga aylantirish mumkin. Bu ishni oddiy kanallar orqali amalga oshirish mumkin. Shuni qayd qilish lozimki, bu holda albatta fotografiya sifatli bulishi lozim. Fotografiyalarni stilizatsiya qilish variantlarini Internetda juda ko'plab topish mumkin.

Nazariy ma'lumot:


Photoshop dasturi fotografiyalar bilan ishlash uchun juda keng imkoniyatlar yaratadi. Bu dastur hozir asosan rastrli va vektorli grafika bilan ishlash uchun muljallangan bulsada, uni fotografiyalar bilan ishlashda ham ishlatish mumkin. Photoshop imkoniyatlaridan biri «ретуширование» imkoniyati bo'lib, uning yordamida fotografiyalarni mexanik buzilishini tuzatishdan tortib bu rasimga istalgancha ishlov berish, kosmetika berish ishlari imkoniyatlari ham kiradi.

Stilizatsiyalash deb u yoki bu stilni imitatsiya qilish, ya'ni uning eng muhim xususiyatlarini qisman yoki tulk ifodalash yoki uning umumlashgan tasvirini yaratish tushuniladi. Eng sodda va tabiiy stilizatsiyalash bu avvalo obyektning hamma muhim xususiyatlari bilan rasmini chizish, sungra rasmini oldingi variantidagi muhim bulmagan detallarini olib tashlab, fakat rasimga uning stiliga tegishli xarakterli detallarini qoldirib boshkatdan chizish tushuniladi.


Zamonaviy grafik paketlar, shu jumladan Photoshop dasturlar masalalarida ham bosh masala tayyor tasvirlardan foydalanish, masalan

fotografiyalardan foydalanib yangi tasvirlar yaratish yoki tasvirlarni restovratsiya qilishdan iborat. Photoshopda keng tarqalgan stilizatsiya - bu qalamda yaratilgan tasvirlarni eski fotografiya sifatida stilizatsiya qilishdan iboratdir.


Adobe Photoshop dasturining oynasi



Navigator va ranglar paneli



Adobe Photoshop dasturining asboblar paneli




Blits – o'yin


Adobe Photoshop dasturidagi asboblar panelining vazifalari

т.р.	асbobлар	жавоб	Хато	тоғри жавоб	№	бажаради
1					1	Лассо:
2					2	Многоугольное
3					3	Аэрограф:
4					4	Штамп:
5					5	Кадрирование
6					6	Волшебная палочка
7					7	Кисть
8					8	Прямоугольная область
9					9	Перемещение:
10					10	Магнитное Лассо
11					11	Кисть предыдущих состояний
12					12	Эллиптическая область
13					13	Палец:


Adobe Photoshop dasturini ochamiz. Rasimda ko'rsatilgan birinchi ishni bajaramiz.




Ikkinchi ish. Ikkinchi obyekt ya'ni to'rtburchak chizamiz.




Uchinchi ish. Uchunchi obyekt ya'ni ellips chizamiz.




To'rtinchi ish. Unga gradiyent beramiz.



Beshinchi ish. Text yozish.



Oltinchi ish. Textga ishlov berib ishni yakunlash.



Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Photoshop dasturi hozir asosan rastrli va vektorli grafika bilan ishlash uchun mo'ljallangan bo'lsada, uni fotografiyalar bilan ishlashda ham ishlatish mumkin. Photoshop imkoniyatlaridan biri «ретуширование» imkoniyati bo'lib, uning yordamida fotografiyalarni mexanik buzilishini tuzatishdan tortib bu rasmga istalgancha ishlov berish, kosmetika berish ishlari imkoniyatlarini o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Sattarov, B. Kurmonboyev. Informatika va xisoblash texnikasi asoslari. Toshkent. «O'qituvchi». 1996 y.224 bet.
2. Zakirova F., Muxamedxanov U., Sharipov Sh., Isyanov R., Esanboboyev F., Dottoyev S.. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma. T.: OO'MTV, 2010.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Google_Chrome
4. <http://hyper.uz/chromeda-ovozli-izlash-yanada-takomillashdi/>
5. <http://elkutubhona.narod.uz>
6. <http://uz.ref.uz>
7. <http://pedagog.uz>
8. www.tuit.uz
9. www.ziyonet.uz

3-Laboratoriya ishi bo'yicha topshiriqlar:

1.



2.



3.



4.



5.



6.



7.



8.



9.



10.



11.



12.



13.



14.



15.



16.



17.



Laboratoriya ish №.4

Mavzu: iSpring QuizMaker dasturi yordamida multimediali testlar yaratish

Ishning maqsadi: iSpring QuizMaker dasturlarda testlar yaratishni o'rganish.

Nazariy ma'lumot

iSpring dasturining bir nechta platformalari mavjud: *iSpring QuizMaker*, *iSpring Kinetics*, *iSpring Prova* *iSpring Suite* dasturlaridir

Odatda, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo'lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o'z navbatida, masofali ta'lim turining paydo bo'lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan-to'g'ri ko'rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring Freye, iSpring PRO va iSpring Presenter kabi variantlarga ega [<http://www.ispringsolutions.com>].

Bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertasiyalash sifati va opsiyalar soniga ko'ra yeng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so'rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o'zaro interaktiv bog'lanish imkoniyatini ham beradi.


iSpring quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertasiyalash imkoniyati;
- taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
- taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko'ra olish,

taqdimotga «himoya belgi»si qo'yish, taqdimotni faqat ruxsat yetilgan domenlardagina «aylantirilishi»;

- video qo'shish va uni animasiyalar bilan sinxronlashtirish;
- elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini yelektron pochtaga yoki masofaviy o'qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o'rnatilgan (Quiz tugmachasi);
- masofaviy o'qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AISS — mos keluvchi kurslarini yaratish;
- taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API ;
